



**DAVLAT ARBOBI, SHARQSHUNOS, O'LKASHUNOS, JADID
MUSO SAIDJONOVNING SAMARQANDDAGI FAOLIYATIGA DOIR**

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti 4-bosqich talabasi

Usmonova Gulyuz

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek milliy uyg'onish davrining yetuk vakillaridan biri, tarixchi va madaniyatshunos Musojon Saidjonovning Samarqand shahridagi ilmiy va madaniy faoliyati tahlil etiladi. Unda Saidjonovning tarixiy yodgorliklarni ilmiy o'rghanish, ularni asrash bo'yicha qilgan ishlari, yozgan asarlari va xalqaro ilmiy anjumanlardagi ishtiroki yoritiladi. Shuningdek, uning siyosiy ta'qib ostida qolgan fojeали taqdiri haqida ham ma'lumot beriladi. Maqola tarixshunoslik, madaniyatshunoslik va o'zbek milliy merosiga oid tadqiqotlar uchun muhim manba hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Musojon Saidjonov, Samarqand, tarixiy yodgorliklar, tarixshunoslik, madaniy meros, Milliy uyg'onish, siyosiy ta'qib, o'zbek ziyolilari, Registon, Sharqshunoslar kongressi.

Abstract: This article analyzes the scientific and cultural activities of Musojon Saidjonov, one of the prominent representatives of the Uzbek national revival, historian and cultural historian, in Samarkand. It covers Saidjonov's work on the scientific study of historical monuments, their preservation, his writings, and participation in international scientific conferences. It also provides information about his tragic fate as a political prisoner. The article is an important source for research on historiography, cultural studies, and Uzbek national heritage.

Keywords: Musojon Saidjonov, Samarkand, historical monuments, historiography, cultural heritage, National revival, political persecution, Uzbek intellectuals, Registan, Congress of Orientalists.



Jadidlarning yirik namoyandalaridan biri, ma'rifatparvar, tarixchi olim, sharqshunos, taraqqiyot yo'lida milliy harakatning faol qatnashchilaridan biri Muso Saidjonov 1893 yili Buxoro shahrida savdogar oilasida tug'ilgan. Mirarab madrasasini bitirib, Kogondagi rus-tuzem mакtabida o'qigan. Muso Saidjonov ilmga qiziqib, arab, fors, turkiy tillar, adabiyot, tarix va geografiya bilan jiddiy shug'ullanadi.

1913 yildan jadidchilik harakatiga qo'shilib, 1917 yilda «Yosh buxoroliklar» partiyasining tashkilotchilaridan biri bo'lgan. Rossiya imperiyasida Romanovlar sulolasini ag'darilgandan keyin, Buxoro amirligida yuz bergan islohotchilik harakatlari fonida Buxoro amiri bilan jadidlar o'rtasidagi muzokaralarda qatnashgan. Keyinchalik u siyosatdan uzoqlashib, maorif sohasida faoliyat ko'rsatgan. Shu sabab bilan Toshkentda o'qituvchilar institutini tugatgan.

1920-yil 2-sentyabrda Buxoro amirligi ag'darilgandan keyin Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuziladi. Muso Saidjonov yangi tashkil etilgan respublikada qator yuqori lavozmilarda faoliyat ko'rsatadi. Jumladan, 1921-yil martgacha oziq-ovqat vaziri, 1921-yil mart-avgust oyida iqtisodiyot vaziri muovini, 1921-yil oktyabrdan 1922 yil yanvargacha davlat nazorati vaziri, 1921-yil avgust-sentyabr oylarida favqulodda komissiya raisi, 1922-yil fevral – aprel oylarida moliya noziri, 1922-yil oktyabr oyidan 1923-yilga qadar Xalq Xo'jalik Oliy Kengashi raisi muovini, 1923 yil iyundan Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tugatilganga qadar maorif Vaziri lavozimlarida faoliyat ko'rsatadi.

Muso Saidjonov buxorolik talabalarni Germaniyaga o'qishga yuborish tashabbuskorlaridan biri bo'lgan. Jadidlarning «Milliy ittihod» tashkiloti faoliyatida qatnashib, Axmad Zakiy Validiy bilan yaqin aloqada bo'lgan. 1921-yilda Buxoro ilmiy jamiyatini tuzishda qatnashgan va Buxoro Xalq Sovet Respublikasida maorif muassasalarini tashkil qilish, me'moriy obidalarni muhofazalash, tarixiy qo'lyozmalarni to'plab, ularni tartibga solish, xalq og'zaki ijodi namunalarini to'plash kabi ishlarda jonbozlik ko'rsatgan. O'zbekiston tarixiy



yodgorliklarini muhofaza qilish qo‘mitasi (Turkkomstaris-Sredazkomstaris-Uzkomstaris) raisi, uning Samarqand bo‘limi ilmiy xodimi bo‘lib ishlagan. Muso Saidjonov 1935-yilda o‘zbek olimlaridan birinchi bo‘lib sharqshunoslarning Leningradda bo‘lgan 3-Kongressida qatnashgan va Ko‘chkunchixon maqbarasi haqida ilmiy ma’ruza qilgan. Shu yili olimga ilmiy faoliyatidagi muvaffaqiyatlari uchun professor unvoni berilgan.

Ammo «Milliy ittihod» tashkiloti faoliyatiga qatnashgani uchun sovet rejimi tomonidan barcha millat fidoiylari, jadidlar kabi 1937-yilda 13-aprelda Samarqandda qamoqqa olingan va otib tashlangan. 1965 yil 2 dekabrdagi oqlangan.

Hozirgi vaqtga qadar Muso Saidjonov faoliyati haqida bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, Buxoroda tarixiy o‘lkashunoslikning shakllanishi va rivojlanishida Muso Saidjonovning o‘rni xususida A.Boltayev tadqiqot ishi olib borgan bo’lsa, N.Naimov olim haqida “Ma’rifatga baxshida umr”, “Muso hayoti: islohotchi, siyosatchi, olim” risolalarini, A.Muinov Muso Saidjonovning hayoti va ijodi haqida risolasini bitishgan.

Shunigdek, olim haqida mustaqillik yillarda qator ilmiy maqolalar ham e’lon qilingan. Xususan, A. Boltayev “Buxorolik bukinist (kitob to‘plovchi) kolleksionerlar”, “Muso Saidjonovning mahalliy o‘lkashunoslikka qo‘shgan hissasi”, H. To‘rayev “Yurtimiz tarixiga oid yana bir muhim manba”, S. Gorshenina “Muso Saidjonov-tarixchi, arxeolog, san’atshunos”, S. Muhammedova “Muso Saidjonovning tarix, arxeologiya, san’atshunoslik fanlari rovojidagi roli” maqolalarida Muso Saidjonovning faoliyatiga doir tahlillarni amalga oshirishgan. B.X.Ergashev va L.N.Xo’jayevlar 1993-yildayoq Muso Saidjonovning arxivi haqida maqola e’lon qilishgan.

Ko’rib chiqilgan ilmiy-tadqiqot asarlari bir qarashda yetarlidek ko’rinadi. Ammo Muso Saidjonov qisqa faoliyati davomida ilm yo’lida ko’plab ishlarni amalga oshirganki, ularni oxirigacha o’rganish uchun bu tadqiqotlar kamlik qiladi. Masalan, olimning Samarqanddagi faoliyati xususida hozirgacha hatto kichik ilmiy



maqolaning ham yo'qligi kishini o'ylantiradi. Vaholanki, Muso Saidjonovning Samarqandda o'tgan 10 yillik umri sermahsul ilmiy faoliyatga boy bo'lgan.

Muso Saidjonov Samarqanddagi faoliyati asosan, temuriylar davri me'moriy yodgorliklarini tadqiq etish bilan bo'gлиq bo'ldi. Albatta Temuriylar davriga oid Samarqand me'moriy yodgorliklarini tadqiq qilish XX asr 20-30- yillarda yangilik emasdi. Chunki undan oldin ushbu yo'nalishda V.L.Vyatkinning kichik risolasi e'lon qilingan edi (Qadim Samarqand yodgorliklari. 1927. 32 bet). Lekin Muso Saidjonovning tadqiqtolari boshqa olimlarnikidan shu bilan farq qiladiki, u me'moriy yodgorliklardan tashqari Temuriylar qabrtoshlari, daxmalarini o'r ganadi va ular ustida epigrafik izlanishlar olib boradi. Olimning «Samarqandning me'moriy yodgorliklari» asarida Samarqanddagi Shohizinda, Amir Temur jome'masjidi, Registon, Amir Temur maqbarasi kabi yodgorliklar to'g'risidagi ma'lumotlarga egadir. Ushbu asar olimning shaxsiy kuzatishlari va arxeologik tadqiqtolari asosida yaratilgan. Jumladan, 1934-yilda Shoxizinda ansamblidagi Qusam ibn Abbos maqbarasi Muso Saidjonov tomonidan arxeologik jihatdan o'r ganiladi va asosan me'moriy qoplamlar bo'laklaridan iborat 30 dan ortiq ashyolar aniqlanadi. Ushbu ashyolar hozirda Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi fondida saqlanmoqda.

Taxminan shu yillarda Muso Saidjonov Samarqand shahridagi xalq orasida "Childuxtaron" deb ataluvchi yodgorlikda qazishma ishlarini olib boradi va u yerdan shayboniyalar sulolasiga vakili bo'lgan Ko'chkinchixonning qabrini aniqlaydi. 1935-yilda Leningraddagi sharqshunoslar syezdida ham ayni shu mavzuda ma'ruza qilgan edi. Shaboniylar daxmalarini tadqiq qilish olimga jahon sharqshunoslarning III Xalqaro simpoziumida katta shuhrat keltirgan edi. Shuningdek, mazkur yodgorlikda olim tomonidan aniqlangan 300 dan ortiq me'moriy qoplamlar va sopol buyumlar uning vafotidan keyin Samarqand muzeyiga topshiriladi.

Muso Saidjonov Registon ansamblida ham arxeologik va epigrafik tadqiqtolar olib boradi. Tadqiqt davomida aniqlangan Sher dor madrasasining me'moriy



koshinlari kolleksiyasi hozirda Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasida saqlanmoqda. Shuning uchun ham u o'z tadqiqotlarida Registon majmuasini keng tasvirlaydi. Mirzo Ulug'bek va Sherdor madrasalarining tarixiy-badiiy qimmatini bir-biridan yaxshi farqlagan holda Ulug'bek madrasasining badiiy mukammalligini ta'kidlaydi.

Muso Saidjonovning faoliyati faqat Samarqand shahri bilan cheklanib qolmadi. XX asrning 30-yillarida u hozirgi Qo'shrabot tumaning Jo'sh qishlog'ida arxeologik qazish ishlarini olib boradi va o'rta asr qo'rg'oniga oid 50 ga yaqin sopol buyumlarni yig'adi. Hozirgi Kattaqo'rg'on tumani Payshanba shaharchasi hududida olib borgan arxeologik qazish ishlari natijasida esa o'rta asrlarga oid sopol buyumlarni qazib oladi.

1936-yilda Muso Saidjonov Karmana va Nurota tumanlariga tashkil etilgan arxeologik ekspeditsiyaga rahbarlik qiladi. Karmana tumani Ko'hna qo'rg'on va Toshrabod qishloqlari yaqinidagi eski qal'a hududidan 50 ga yaqin sopol buyumlarni qazib oladi. Olim tomonida XVI asrda Abdullaxon II tomonidan qurilgan Xonbandi suv ombori qoldiqlarini ham tadqiq etadi. Olim Xonbandining mustahkamligi sirini topishga harakat qiladi. Shuning uchun ham suv ombori qurilishida ishlatilgan g'ishtlar orasiga quyilgan qorishmadan bir necha namunalarni yig'ib keladi.

Muso Saidjonov Nurota hududidagi arxeologik tadqiqotlarini davom ettirib, Dehi baland qishlog'i yaqinidagi eski qal'a qoldiqlari o'rnida sopol buyumlar kolleksiyasini va mehnat quollarini, G'azg'ondagi qadimiy qal'a, Isoboytepa yodgorligi va Nurota qal'asida sopol buyumlar kolleksiyalarini yig'adi.

1930-yillarda Muso Saidjonov Amir Temurning Shaxrisabzdagi mashur saroyi Oqsaroy, Dor ut-tilovat va Dor ut-saodat majmularini arxeologik jihatdan tadqiq etadi. Natijada olimning shaxsiy kuzatishlari va tadqiqotlari natijasida «Shahrisabz me'moriy yodgorliklari tarixi» asarini yozadi. Olimning arxeologik tadqiqotlari natijasida aniqlangan 100 ga yaqin me'moriy qoplamlar namunalari,



mayolika va mozaikalar hozirda Samarqand davlat mzuey-qo'riqxonasi fondida saqlanmoqda.

Muso Saidjonov asosiy ishi bilan birga Samarqand muzeyida ham ilmiy xodim sifatida faoliyat yuritgan. Samarqand muzeyini 1930-yilda Respublika muzeyi darajasiga olib chiqishda, 1933-yilda muzey kolleksiyasining bir qismini Registon ansamblidagi Ulug'bek madrasasiga ko'chirish va u yerda yangi ekspozitsiyalar qurish ishlarida ishtorok etgan. Hozirda Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi fondida olimni muzeydagi faoliyati bilan bo'glik hujjatlar, ayniqa fotosuratlar ko'plab saqlanib qolgan.

Yuqoridagilarda xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Muso Saidjonovning siyosiy, islohotchilik, maorifga oid va ilmiy-tadqiqot ishlari to'la o'r ganilmagan. Olimning ilmiy merosini o'rganish tariximizdagi ko'plab oq dog'larni ketkazishi mumkin. Ayniqa uning temuriylar davri me'moriy obidalari bilan bo'glik tadqiqotlarini o'rganish hozirda yo'q bo'lib ketgan me'moriy yodgorliklar haqida tasavvur hosil qilish uchun, temuriylar me'moriy obidalarini tiklash va restavratsiya qilish ishlarida qo'l keladi

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Ҳамидов Н. Мусо Сайджонов – маърифатпарвар ва жамият арбоби // Илм ва ҳаёт. – 2017. – №2. – Б. 32–36.
2. Ismoilov A. Jadidchilik harakati va uning vakillari. Tashkent: O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi, 2019. -14 б
3. Усмонов Б. Мусо Сайджонов ҳаёти ва ижоди ҳакида. – Самарқанд, 2014. – 98 б
4. Олимова Н. Самарқанднинг маърифатчи арбоблари. – Т.: Фан, 2002. – 128 б.
5. Ziyo-Ziyo. Saidjonov Musojon Yo'ldoshevich. // **Qomus.info** — O'zbekiston ziyorilari haqida ma'lumotlar portalı.
<https://qomus.info/oz/encyclopedia/s/saidjonov-musojon-yoldoshevich>



6. "Musojon Saidjonov (1893–1937)". // **Ziyouz.com – O‘zbek ziyoulilari bo‘yicha maqolalar to‘plami** <https://ziyouz.com/portal-haqida/xarita/o-zbek-ziyoulilari/muso-saidjonov-1893-1937>
7. Xasanov A. M., Normatov S. N. *O‘zbek me’morchiligi va tarixiy yodgorliklar tarixi.* — Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2018. — 264 b.
8. Karimov I. A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.* — Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
9. Rahmonov A. *Milliy uyg‘onish va jadidchilik harakati tarixidan.* — Samarqand: “Noshir”, 2020.
10. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti. *O‘zbek tarixshunosligi rivoji (XX asr).* — Toshkent: “Sharq”, 2015.